Globallashuv sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-pedagogik kompetentligini rivojlantirish	1969
Karimov Ravshanbek Rizomatovich	
Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarning sensor etalonlarini shakllantirishning ahamiyati	1973
Kayumova Dilnoza Patxulla qizi	
Fizika fanini o'qitishda o'quvchilarning epistemik faolligini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish samaradorligi	1978
Madumarov Shodonbek Az'amjonovich	



Chet tilini o'qitishda dars rejalashtirish modellarining qiyosiy tahlili.....	1982
Mahkamova Dilshoda Shuhrat qizi	
Yoshlar o'rtasida gemblinning psixologik omillari va oqibatlari	1986
Melibayeva Ro'zaxon Nasirovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki muloqot madaniyatini rivojlantirishda ertakterapiyaning ahamiyati.....	1990
Murodova Farangis G'anisherovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integratsiyalashgan mashg'ulotlar jarayonida bolalarning kommunikativ nutqlarini rivojlantirishning asosiy tamoyillari	1994
Muxtorova Moxiraxon Ma'rufjon qizi	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarini muzey pedagogikasi vositasi orqali tarixiy tafakkurini rivojlantirishning modeli	1997
Niyozov Javlonbek Jaxongir o'g'li	
Ingliz tilini o'rgatishda interrogativ vositalarning "MYTBT" moduli orqali ifodalanishi	2003
Normamatova Dिल्фуza Turdikulovna	
Biologiya darslarida ekologik ekskursiyalarni tashkil etishning amaldagi holati	2008
Quldosheva Dilso'z Sunnatovna	
Maktabgacha 6–7 yosh bolalarda jismoniy rivojlantirish va madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni shakllantirish.....	2011
Romanova Lola Karimbayevna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni mantiqiy fikrlashga o'rgatishda TRIZ texnologiyasidan foydalanish.....	2014
Rustamova Gulmira Yoriyigit qizi	
Ikkinchi tilni o'rganishda "Chaynvord" metodini qo'llashning afzalliklari va kamchiliklari	2018
Sadinov Oybek Ziyot o'g'li	
Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali pedagoglarning kreativligini rivojlantirish	2021
Saydullayeva Gulasal Umidjon qizi	
Ish beruvchilar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan loyiha topshiriqlari asosida ESP kurslarini amaliyotga yo'naltirish va talabalarning kasbiy ingliz tili kompetensiyalarini shakllantirish	2024
Shermuxevedova Dilnozaxon Raximdjanoyna	
Raqamli ta'lim muhitida o'quv resurslarini yaratishning raqamli-didaktik mazmunini rivojlantirish metodikasi	2028
Shirinov Feruzjon Shuxratovich	
Og'ir atletikachilarning boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida portlovchi kuchni rivojlantirish samaradorligi.....	2031
Tojimatov Oybekjon Dilmurodjon o'g'li	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida STEAM xalqaro dasturini qo'llash metodikasi	2034
Tojiyeva Iroda Sadatovna, Shoimov Anvar Mamarizayevich	
Interfaol metodlardan foydalanib matematika darslari samaradorligini oshirish	2039
Toshboyeva Saidaxon Rahmonberdiyevna, Nishonova Shahnozaxon Ro'zali qizi	
Maktabda fizika darslarida ekologik mazmundagi masalalardan foydalanish	2043
Tursunov Alisher Isoqovich, Erniyazova Shaxnoza Xurram qizi	
Taniqli kimyogar olimlarning ijodiy faoliyatini o'rgatish metodikasi	2046
Ubaydullayeva Navruza Ne'matovna	
Muhandislik kompetensiyalariga ega zamonaviy texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash	2050
Umarov Abdurasul Abduraximovich	
Talabalarda mediasavodxonlik fani asosida konseptual tahlil kompetensiyalarini takomillashtirish metodikasi.....	2058
Umarov Xusanboy Rustamovich	
Pedagogical-Psychological Features of Forming Research Competences.....	2062
Usmanova Nargiza Kudirattulayevna	
Qasddan badanga yengil shikast yetkazish jinoyatining ijtimoiy salbiy oqibatlari (yuridik va ijtimoiy-falsafiy tahlil)	2065
Xaidarov Rahmatullo Ergashevich, Amirxo'jayev Shukurjon Qurbanovich	
Talabalar sog'lig'iga ta'sir qiluvchi zamonaviy raqamli texnologiyalar va ularni boshqarish tizimlari	2069
Xaqiqatbekov Zafarbek Shavkatbek o'g'li	
Tez tibbiy yordam fanida stressni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishning integrativ-metodik modeli ...	2073
Xasanov Kamoliddin Ulug'bek o'g'li	
Talabalik davrida hayotiy qadriyatlar shakllanishining psixologik xususiyatlari	2080
Xayrullayeva Zebiniso Toxirovna	
Informatsion-analitik kompetentlik iborasining pedagogika va falsafa fanlari misolida konseptual tadqiqi..	2085
Xolmatova Elnura Sherali qizi	
Emotsional intellekt rivojlanishida ijtimoiy muhitning psixologik ahamiyati	2088
Xudoyqulova Shoir Husanovna	
Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar asosida dars samaradorligini oshirish metodikasi	2091
Xurramova Mehriniso Shamsiddin qizi	
The Adaptation Characteristics of the Movement Analyzer are Influenced by Physical Exercise	2094
Yoldasheva Roila Jumaevna, Fayziyeva Kibriyo Tuvlanovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda faol fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish	2098
Yuldasheva Dilshoda To'liqinova	

Geometrik isbotlashlarni o'rgatishda dasturiy vositalardan foydalanishning innovatsion yondashuvlari.....	2102
<i>Yunusova Dilfuza Ismailovna, Toxirova Malika Muzaffar qizi</i>	
ESP (maxsus maqsadlar uchun ingliz tili) dasturlarida vazifaga yo'naltirilgan biznes kommunikatsiyasi orqali oliy ta'limni mehnat bozori talablariga moslashtirish.....	2106
<i>Yunusova Feruzaxon Xodjiakbarovna</i>	
Genderga oid qarashlarning pedagogik bilimlar strukturasidagi ahamiyati	2109
<i>Yunusova Xolidaxon To'liqinjon qizi</i>	
Integrativ yondashuv orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida kritik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali didaktik mexanizmlari.....	2113
<i>Zokirova Ma'suma Qahramonjon qizi</i>	
Ta'lim klasterlarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish.....	2116
<i>Badalova Maqsuda Umarovna</i>	
Malakali kurashchilarda gavda-bel va qo'l-panja mushaklarining absolyut maksimal kuchini bir o'my davomida o'sish sur'ati	2119
<i>Mirzanov Sherzod Sirliboyevich</i>	
Технологии формирования коммуникативных навыков у детей раннего возраста.....	2123
<i>Назарова Эльвира Наримановна</i>	
Роль акмеологического подхода в оценке качества профессиональной подготовки будущих учителей.....	2127
<i>Шафига Тахирова</i>	
Этимологические справки к словарным словам школьных учебников по русскому языку по традиционной системе обучения.....	2131
<i>Эшанкулов Хамракул Маматкулович</i>	
Maktab o'quvchilarini jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda amaliy mashqlarning samaradorligi	2135
<i>Achilov Telman Sa'dullayevich</i>	
O'zbekiston va xorijiy davlatlar adabiyot o'qitish metodikalarining qiyosiy tahlili	2138
<i>Abdullayeva Maftuna Odiljon qizi</i>	
Murod Muhammad Do'st hikoyalarida o'zbekona qadriyatlar va ularning til vositasida ifodalanishi	2144
<i>A. K. Xamidov</i>	
Innovatsion qarashlar asosida raqamli ta'lim tashkil etish metodikasi.....	2150
<i>Pozilova Sh. X., Choriyeva Xursanoy Xusanovna</i>	
Bolalik – insonning ijtimoiy hayot me'yorlarini egallay boshlash davri.....	2153
<i>Gaziyeva Nigora Shamsiddinovna, Xodjimato Nazira Toshmatovna</i>	
Umumta'lim maktablarida strategik rejalashtirishning sifat ko'rsatkichlari	2157
<i>Mamayusupova Muattar Qosimjonovna</i>	
Psychodiagnostics of the Relationship Between Existential Vacuum and the Religious Factor in an Individual.....	2161
<i>Saydaliyeva Mehriniso Umidullayevna</i>	
Современное дошкольное образование Финляндии: сравнительный анализ с системой дошкольного образования Узбекистана	2165
<i>Владимирова Любовь Владимировна</i>	
Сложносокращённые слова в средствах массовой информации	2168
<i>Рахмонова Бахтигул Пайзиллоевна</i>	
Biologiya fanini o'qitishda elektron darsliklar, onlayn platformalar va virtual laboratoriyalarning metakognitiv rivojlanishga ta'siri	2172
<i>Abdurasulova Gulrux Habibullayevna</i>	
Цифровая лингвистика и корпусные исследования русского языка: применение компьютерных технологий для анализа лексики, морфологии и синтаксиса.....	2178
<i>Марупова Дилфуза Давроновна</i>	
Filolog talabalarda tanqidiy fikrlashga asoslangan pedagogik qaror qabul qilish kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	2182
<i>Jo'rayeva Dilnoza Ro'zimat qizi</i>	
Pedagogik ta'limda tadqiqiy faoliyatni integratsiyalash texnologiyalari: nazariy va amaliy jihatlar	2186
<i>Rustamova Shoxista Omonjonovna</i>	
Теоретические и методологические основания изучения психолингвистики в Узбекистане	2190
<i>Мусаева Елена Казимовна</i>	
Biologiya darslarida innovatsion interfaol metodlar: STEM, CLIL, Flipped Classroom va PBL yondashuvlarini joriy etish mexanizmlari.....	2193
<i>Kozimov Akbarjon A'zamjon o'g'li</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda klaster metodining ahamiyati.....	2198
<i>Badalov Dilmurod Abdixalilovich</i>	
Using STEM Technologies to Help Develop Logical Thinking.....	2202
<i>Akhmedov Alisher Astanovich, Vasitov Otabek</i>	
Matematik kompetentlik tushunchasining ahamiyati	2205
<i>Ismoilov Bobur Toxirovich</i>	
Yuqori tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun teskari masalalarni o'rgatish metodikasi	2210
<i>Murzambetova Mexriban Begdullayevna</i>	



Boshlang'ich sinf o'quvchilarida orfografik kompetensiyani shakllantirish.....	2215
<i>Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Mo'minjonova Gulnoraxon Abdupatto qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda xalq og'zaki ijodi vositasida milliy g'urur hissini shakllantirishda ota-onalarning o'rni.....	2219
<i>Kadirova Shaxnoza Xudoyberdiyevna</i>	
Ochiq havoda voleybol mashg'ulotlarida jismoniy tayyorgarlikni oshirishning samarali usullari	2226
<i>Begimqulov Oltiboy Jo'rayevich</i>	
Biologiya ta'limida elektron ta'lim (E-learning) va aralash ta'lim (blended learning) texnologiyalarining samaradorligini tahlil qilish.....	2230
<i>Kozimov Akbarjon A'zamjon o'g'li</i>	
Talabalarni jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga jalb etishda motivatsion omillarni tahlil qilish.....	2236
<i>Tashpulatov Farxad Alisherovich</i>	
Verbal kommunikativ kompetensiya va emotsional intellekt o'rtasidagi pedagogik bog'liqlik	2242
<i>Ismoilov Temurbek Islomovich</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida arttexnologiya orqali ijodkorlikni rivojlantirish.....	2246
<i>Mamatova Xusnora Eshquvatovna</i>	
O'qituvchi faoliyatida pedagogik texnologiyalarni samarali qo'llash metodikasi	2250
<i>Xomidjonov Abrorjon Olimjon o'g'li</i>	
Malakali belbog'li kurashchilarning tezkorlik-kuch sifatlari va texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantirishning nazariy asoslari	2254
<i>To'xtasinov Bobir Maxamadali o'g'li</i>	
Kasbiy ta'lim fanlarini o'qitishda axborotli ta'lim muhitidan amaliyotda foydalanishning didaktik imkoniyatlari	2258
<i>Muqimov Ma'ruf Olimovich</i>	
Ta'lim transformatsiyasi jarayonida talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishda aksiologik yondashuvdan foydalanishning dolzarbligi	2262
<i>Abdurazzakova Zebiniso Akmalxon qizi</i>	
Matematik fikrlashni shakllantirishda o'qituvchi faoliyatining ahamiyati.....	2265
<i>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Badridinov Nusratbek Xusniddin o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy-madaniy kompetensiyani shakllantirish metodikasi.....	2271
<i>Yuldashev Bahodir Narzullayevich</i>	
Zamonaviy o'quv jarayonida STEAM ta'lim texnologiyasining ahamiyati	2275
<i>Shoyeva Yulduz Amin qizi</i>	
Качественное высшее образование – основа инновационного прогресса Узбекистана	2277
<i>Расулов Илхом Инамович</i>	
Theoretical Criteria of Teaching Based on the Integration of Subjects.....	2282
<i>Shokhimardanova Niginabonu Shavkatovna</i>	
Fizikadan laboratoriya darslari jarayonida o'quvchilarning loyihalash kompetensiyasini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari.....	2285
<i>Rustamov Ilyos</i>	
O'zbekistonning eng yangi tarixiy voqealarini falsafiy konseptlar orqali o'rgatish: pedagogik va metodologik yondashuvlar	2288
<i>Abdullayeva Asila Abdulxodiyevna</i>	
O'zbekiston oliy ta'lim tizimida talabalar malakaviy amaliyotini tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslari va amaliy tajribasi	2293
<i>Qaramanov Obid Xudayberdiyevich</i>	
Bola shaxsini rivojlantirishda o'yin texnologiyalari va interaktiv metodlarning pedagogik ahamiyati.....	2297
<i>Azimova Dilnoza Sherzodovna</i>	
Samarali hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlashga oid yondashuvlar	2300
<i>Hojiyeva Zulfiya O'ktamovna</i>	
Ratsional hayot tarzi: fanlararo nazariy asoslar, tamoyillar va amaliy strategiyalar.....	2303
<i>Bekmuradov Zarif Xurramovich</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida alohida yordamga muhtoj bolalar integratsiyasi va korreksiyasi.....	2308
<i>Olimova Nodirabegim Ibroximjon qizi, Sulaymonova Shahnoza Alisher qizi</i>	
Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda talabalar huquqiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik asoslari	2312
<i>Ganiyev Elyorbek Ulug'bekovich</i>	
Qo'shma ta'lim va xalqaro talabalar almashinuvi	2316
<i>Xabibullayev Alimardon Xidoyatillayevich</i>	

AUDITORIYADAN TASHQARI MASHG'ULOTLARDA TALABALAR HUQUQIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Ganiyev Elyorbek Ulug'bekovich

Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida talabalar huquqiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik asoslarini tizimli va ilmiy nuqtai nazardan tahlil qiladi. Maqolada huquqiy kompetentlikning pedagogik tamoyillari, tashkiliy va metodologik usullari, shuningdek auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarning ta'lim jarayonidagi roli batafsil yoritilgan. Tadqiqotda nazariy va amaliy tadqiqotlar, xususan xalqaro tajribalar va ilg'or pedagogik konsepsiyalar asosida talabalar huquqiy ongini hamda kompetentligini rivojlantirish usullari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, maqola pedagogik strategiyalarni ilmiy asosda ishlab chiqish va ularni ta'lim jarayoniga samarali tatbiq etishning amaliy yo'llarini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar, huquqiy kompetentlik, pedagogik asoslar, ta'lim strategiyalari, talabalar rivoji.

Abstract: This article provides a systematic and scientific analysis of the pedagogical foundations for developing students' legal competence during extracurricular activities. The article elaborates on the pedagogical principles of legal competence, organizational and methodological approaches, as well as the role of extracurricular activities in the educational process. The study examines theoretical and practical research, including international experiences and advanced pedagogical concepts, to analyze methods for developing students' legal awareness and competence. Moreover, the article demonstrates practical ways to scientifically develop pedagogical strategies and effectively implement them in the educational process.

Key words: extracurricular activities, legal competence, pedagogical foundations, educational strategies, student development.

Аннотация: Данная статья системно и с научной точки зрения анализирует педагогические основы формирования правовой компетентности студентов в процессе внеаудиторной работы. В статье подробно освещаются педагогические принципы правовой компетентности, организационные и методологические методы, а также роль внеаудиторной работы в образовательном процессе. В исследовании рассматриваются теоретические и практические исследования, в частности международный опыт и передовые педагогические концепции, для анализа методов развития правового сознания и компетентности студентов. Кроме того, статья демонстрирует практические пути научно обоснованной разработки педагогических стратегий и их эффективного внедрения в образовательный процесс.

Ключевые слова: внеаудиторная работа, правовая компетентность, педагогические основы, образовательные стратегии, развитие студентов.

KIRISH

Hozirgi zamon ta'lim tizimi global jarayonlarning murakkabligi va shaxsiy kompetentlikning ortib borayotgan ahamiyati bilan belgilanadi. Ta'limning sifatli va samarali bo'lishi nafaqat akademik bilimlar darajasi, balki talabalar ongida huquqiy, ijtimoiy hamda madaniy qadriyatlarni shakllantirish bilan ham chambarchas bog'liqdir ^[1].

Xususan, huquqiy kompetentlik konsepsiyasi ta'lim jarayonida markaziy o'rin egallab, u shaxsning jamiyatda amal qilayotgan huquqiy me'yorlar, axloqiy-etik tamoyillar va qonuniy munosabatlarga moslashish qobiliyatini ifodalaydi. Huquqiy kompetentlik nafaqat nazariy bilimlar majmuasi, balki amaliy ko'nikmalar, qaror qabul qilish salohiyati hamda axloqiy-intellektual fazilatlarini ham o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik jarayonda ushbu kompetentlikni shakllantirish tizimli va metodologik jihatdan izchil yondashuvni talab



etadi. Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida talabalarni nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishga, mustaqil fikrlashga va huquqiy tushunchalarni real hayotiy vaziyatlarda qo'llashga o'rgatadi ^[2].

Mazkur mashg'ulotlar, ayniqsa, interaktiv va loyihalashtirilgan metodlar asosida tashkil etilganda, talabalar huquqiy ongini rivojlantirish, axborotni tahlil qilish hamda asoslangan qarorlar qabul qilish qobiliyatini oshirish imkonini beradi. Shu sababli auditoriyadan tashqari faoliyat pedagogik jarayonda talabalarning huquqiy kompetentligini rivojlantirish uchun samarali vosita sifatida qaraladi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, huquqiy kompetentlikni shakllantirishning samarali modeli faqat auditoriyada olib boriladigan mashg'ulotlar bilan cheklanmaydi. Xalqaro pedagogik amaliyotda talabalar mustaqil, jamoaviy va loyiha asosidagi mashg'ulotlarda faol ishtirok etish orqali huquqiy bilimlarini mustahkamlaydilar. Jumladan, moot courtlar, debat klublari, simulyatsion sud jarayonlari va huquqiy klub mashg'ulotlari auditoriyadan tashqari faoliyat shakli sifatida keng qo'llaniladi ^[3]. Ushbu metodlar talabalarni huquqiy me'yorlar, ijtimoiy normalar va huquqiy qadriyatlar bilan tanishtirish bilan birga, ularning tanqidiy fikrlash hamda axborotni tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, talabalarda huquqiy kompetentlikni shakllantirishda pedagogik yondashuvning mohiyati, o'quv jarayonining individual xususiyatlarga moslashuvchanligi va psixologik motivatsiya mexanizmlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Talabalarni faollikka jalb qilish, ularning mustaqil qaror qabul qilishiga sharoit yaratish va real vaziyatlarda huquqiy bilimlarni qo'llash tajribasini ta'minlash pedagogik jarayon samaradorligini oshiradi ^[4]. Ilmiy adabiyotlarda huquqiy kompetentlik, asosan, ikki tarkibiy komponent orqali shakllanishi qayd etiladi: birinchisi nazariy bilimlar, ikkinchisi esa amaliy ko'nikmalardir. Nazariy bilimlar huquqiy normalar, qonunlar va ijtimoiy tartib haqidagi bilimlarni shakllantirsa, amaliy ko'nikmalar ushbu bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo'llash imkonini beradi.

Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar aynan amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, talabalar uchun huquqiy jarayonlarni simulyatsiya qilish va interaktiv metodlardan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, pedagogik tadqiqotlarda auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar innovatsion ta'lim vositasi sifatida baholanadi. Ular talabalarning huquqiy fikrlashini mustahkamlash, axborotga asoslangan qarorlar qabul qilish va ijtimoiy faoliyatda huquqiy ongni rivojlantirish imkonini beradi ^[5]. Ushbu kontekstda talabalarda huquqiy kompetentlikni shakllantirish nafaqat o'quv jarayoni, balki ularni mustaqil va mas'uliyatli fuqarolar sifatida tayyorlashning muhim bosqichi hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar orqali talabalarda huquqiy kompetentlikni shakllantirishning pedagogik asoslarini tizimli tahlil qilish, nazariy va amaliy metodlarni aniqlash hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Shu nuqtai nazardan, maqola talabalarning huquqiy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan mustahkamlash, pedagogik jarayonda innovatsion yondashuvlarni qo'llash va huquqiy ongni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar orqali huquqiy kompetentlikni shakllantirish masalasi zamonaviy ta'lim nazariyasi va amaliyotida keng ilmiy e'tibor markazida turadi. Xalqaro ilmiy tadqiqotlarda huquqiy kompetentlik konsepsiyasi turli yondashuvlar asosida tahlil qilinib, pedagogik metodlar, interaktiv ta'lim shakllari hamda tashqi faoliyat orqali amalga oshiriladigan strategiyalar bilan izohlanadi. Jumladan, Litinska va hammualliflari-ning "Developing Legal Competence in Junior Bachelors: Prospects of Distance Learning" nomli tadqiqotida huquqiy kompetentlikni rivojlantirishning postmodern ta'lim kontekstidagi ahamiyati asoslab berilgan.

Mualliflar huquqiy kompetentlikni nafaqat nazariy bilimlar majmuasi, balki amaliy faoliyatga tatbiq etish qobiliyati bilan bog'lab, guruhli ishlar, huquqiy vaziyatlarni hal etish va rolli o'yinlar kabi interaktiv metodlar orqali talabalar huquqiy kompetentligini oshirish mumkinligini ta'kidlaydilar ^[6]. Tadqiqot natijalari ushbu yondashuvlar talabalar huquqiy kompetentligi darajasini sezilarli oshirganini ko'rsatadi.

Shuningdek, boshqa ilmiy manbalarda ham auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar orqali huquqiy kompetentlikni shakllantirish zarurati qayd etiladi. Xalqaro miqyosdagi sud klublari faoliyati, talabalar klublari tadbirlari hamda qo'shimcha huquqiy muhokamalar orqali talabalar huquqiy bilimlarni nafaqat egallaydi, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda qo'llash qobiliyatini ham rivojlantiradi. Ushbu izlanishlarda auditoriyadan tashqari faoliyatning talabalarda huquqiy kompetentlikni shakllantirishdagi roli chuqur tahlil qilinib, innovatsion pedagogik yondashuvlar, jumladan raqamlashtirish sharoitida klub faoliyati va tashqi loyiha mashg'ulotlarining ustuvorligi ta'kidlanadi ^[7]. Mazkur ilmiy yondashuvlar huquqiy kompetentlikni shakllantirishni faqat bilim darajasini oshirish bilangina cheklamay, balki talabalarning mustaqil fikrlash, vaziyatlarni tahlil qilish va asoslangan qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantiruvchi kompleks pedagogik tizim sifatida talqin etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida talabalar huquqiy kompetentligini shakllantirishni o'rganish uchun integratsion metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning asosiy metodlari sifatida pedagogik kuzatuv, eksperimental metod, so'rov hamda interaktiv mashg'ulotlar tahlili uyg'unlashtirildi. Pedagogik kuzatuv orqali talabalar auditoriyadan tashqari mashg'ulotlardagi faollik darajasi, huquqiy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish qobiliyati va jamoaviy ishlash ko'nikmalari baholandi. Eksperimental metod yordamida turli pedagogik strategiyalarning samaradorligi, xususan, guruhlarda muammolarni yechish, simulyatsion sud mashg'ulotlari va huquqiy debatlar orqali huquqiy kompetentlikning rivojlanishini aniqlash imkoniyati yaratildi. Shu bilan birga, so'rov va interaktiv mashg'ulotlar tahlili orqali talabalar o'zlarining huquqiy bilim va ko'nikmalarini baholashlari, shuningdek pedagogik jarayonda qaysi metodlar ular uchun eng samarali ekanini aniqlash imkoniyati yuzaga keldi.

Metodologik yondashuvning asosiy pedagogik tamoyili – faol o'rganish va amaliyotga tatbiq etish orqali huquqiy kompetentlikni shakllantirishdan iborat. Ushbu metodlarning integratsiyasi talabalarning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalarga aylantirish, tanqidiy fikrlash hamda qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu tariqa, maqolada qo'llangan metodlar o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarni huquqiy kompetentlikni shakllantirishning samarali vositasi sifatida ilmiy asoslash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar talabalar huquqiy kompetentligini shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega. Eksperimental tadqiqot davomida turli pedagogik metodlar, xususan, simulyatsion sud mashg'ulotlari, huquqiy debatlar, guruh ishlari hamda vaziyatlarni tahlil qilish orqali talabalarning huquqiy bilim va ko'nikmalari sezilarli darajada oshgani aniqlandi. Kuzatuv natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalar auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda faol ishtirok etganida, ular nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlaydi, balki amaliy vaziyatlarda qonuniy qaror qabul qilish va huquqiy tahlil yuritish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. So'rov natijalari esa auditoriyadan tashqari faoliyat talabalarning huquqiy kompetentligini shakllantirishga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Xususan, talabalarning o'zini o'zi baholashi va pedagogik kuzatuvlar asosida aniqlangan natijalar o'rtasida moslik mavjud bo'lib, bu qo'llangan metodlarning ishonchlilikini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, natijalar pedagogik yondashuvning individual xususiyatlarga moslashuvchanligini va interaktiv usullarni qo'llash samaradorligini ham namoyon etdi. Ushbu natijalar auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarni tizimli tarzda tashkil etish orqali talabalar huquqiy kompetentligini rivojlantirishning optimal modelini ishlab chiqish mumkinligini ko'rsatadi. Natijalar, shuningdek, pedagogik strategiyalarni ilg'or texnologiyalar va interaktiv yondashuvlar bilan boyitish hamda talabalarni mustaqil va faol ishtirok etishga rag'batlantirish zarurligini asoslaydi.

Auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar orqali talabalar huquqiy kompetentligini rivojlantirish bo'yicha xalqaro ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalar huquqiy kompetentlik konsepsiyasida ham umumiy yondashuvlar, ham metodologik tafovutlar mavjud. Xususan, Hanoi Law University misoli asosida o'tkazilgan tadqiqotda talabalarning akademik, professional va extracurricular (auditoriyadan tashqari) faoliyatlarda ishtirok etish darajasi o'rganilgan ^[8].

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalar ko'pincha an'anaviy auditoriya ta'lim shakllarida faol qatnashgan bo'lsalar-da, interaktiv debatlar, moot court mashg'ulotlari, huquqiy klublar hamda amaliy stajirovkalarda ishtirok etish darajasi nisbatan past bo'lgan. Bu holat ularning huquqiy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish hamda huquqiy kompetentlikni chuqurlashtirish imkoniyatlarini ma'lum darajada cheklaydi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda faol ishtirok etish talabalarning kritik fikrlash, huquqiy tahlil va amaliy ko'nikmalarini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Shu sababli ta'lim dasturlarida bunday tashqi faoliyatlarga kengroq imkoniyat yaratish zarur. Biroq ushbu yondashuvga nisbatan qarama-qarshi fikrlar ham mavjud. Jumladan, ayrim huquqiy pedagogika tadqiqotchilari huquqiy kompetentlikni shakllantirish jarayonida an'anaviy akademik metodlar, xususan, nazariy bilimlarni mustahkamlash hamda ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarni chuqurlashtirishga alohida e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar foydali bo'lishiga qaramay, huquqiy nazariyani puxta o'zlashtirish talabalar huquqiy kompetentlikni to'laqonli egallashlari uchun muhim shart bo'lib qoladi.

Mazkur nuqtai nazar amaliy va nazariy pedagogik tamoyillar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ko'rsatadi, ya'ni tashqi mashg'ulotlar faqat chuqur nazariy bilimlar asosida tashkil etilgandagina maksimal samara beradi. Shu munosabat bilan ilmiy hamjamiyatda ikki xil pedagogik paradigmani ajratish mumkin ^[9].

Birinchi paradigma auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarni huquqiy kompetentlikni shakllantirishning asosiy vositasi sifatida baholab, talabalarni real hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish orqali huquqiy fikrlashga jalb etadi.



Ushbu yondashuvda talabalar tajribasi va faol ishtiroki markaziy o'rin tutib, huquqiy qaror qabul qilish ko'nikmalari hamda ijtimoiy anglanish rivojlanadi.

Ikkinchi paradigmadagi esa auditoriyadan tashqari faoliyatlar qo'shimcha vosita sifatida qaraladi va asosiy e'tibor ta'lim jarayonining nazariy asoslari, huquqiy konsepsiyalar hamda normativ mexanizmlarning chuqur o'rganilishiga qaratiladi. Ushbu ikki yondashuv o'rtasidagi ilmiy polemika shuni ko'rsatadiki, huquqiy kompetentlikni shakllantirishning samarali modeli faqat auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarni qo'llash bilangina emas, balki ularni an'anaviy ta'lim bilan uzviy integratsiya qilgan holda amalga oshirilishi lozim.

Shuningdek, talabalar motivatsiyasini oshirish va ularni tashqi faoliyatlarda faol ishtirok etishga rag'batlantirish uchun institutsional qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, ijtimoiy-pedagogik tadbirlar hamda malakali pedagogik qo'llanmalarga ehtiyoj mavjudligi ta'kidlanadi^[10]. Bunday strategiyalar talabalarga huquqiy bilimlarni nafaqat nazariy jihatdan o'zlashtirish, balki ularni real huquqiy vaziyatlarda samarali qo'llash qobiliyatini ham sezilarli darajada kuchaytiradi. Natijada pedagogik jarayon huquqiy ong, huquqiy madaniyat va amaliy ko'nikmalarni kompleks ravishda shakllantiruvchi dinamik tizimga aylanadi.

Umuman olganda, ushbu bahs-munozaralar auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar hamda an'anaviy pedagogik yondashuvlar o'rtasida muvozanatni ta'minlash muhimligini ko'rsatadi. Aynan shu muvozanat talabalar huquqiy kompetentligini chuqur, puxta va amaliy jihatdan shakllantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Ushbu maqolada auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida talabalarning huquqiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik asoslari tizimli tarzda tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, auditoriyadan tashqari faoliyatlar, xususan, simulyatsion sud mashg'ulotlari, huquqiy debatlar, guruh ishlari va vaziyatlarni tahlil qilish talabalarning huquqiy bilimlarini mustahkamlash, amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish hamda qaror qabul qilish qobiliyatini oshirishda yuqori samaradorlikka ega. Adabiyotlar tahlili va xorijiy olimlar tajribalari asosida pedagogik jarayonda auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarni nazariy bilimlar bilan integratsiyalashgan holda qo'llashning ahamiyati ta'kidlandi. Shu bilan birga, pedagogik yondashuvning individual xususiyatlarga moslashuvchanligi, interaktiv metodlarni qo'llash va talabalarni faol ishtirok etishga rag'batlantirish huquqiy kompetentligini shakllantirishning samarali mexanizmi sifatida aniqlandi.

Metodologik jihatdan maqolada pedagogik kuzatuv, eksperimental tadqiqot, so'rov va interaktiv mashg'ulotlar tahlili integratsiyalangan holda qo'llanilib, talabalarning huquqiy kompetentligini rivojlantirishning optimal yo'llari belgilandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarni tizimli va uzviy ravishda ta'lim jarayoniga kiritish, talabalarni mustaqil va faol o'rganishga jalb qilish orqali huquqiy ong va amaliy kompetensiyalarni samarali shakllantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ochilova G. O., Akbarova S. S. H. Kasbiy kompetentlik: darslik. Toshkent – 2022.
2. Kenjaboyev A., Kenjaboyeva D. Pedagogik deontologiya va kompetentlik. Termiz: Surxon-nashr nashriyot-matbaa, 2022.
3. Sharopova Z. F. Ta'lim texnologiyalari. Toshkent: Navro'z, 2019.
4. Jumayeva G. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda pedagogik yondashuv asoslari // "TISU Ijtimoiy fanlari va innovatsion pedagogika" ilmiy jurnali. – 2025. – T. 1. – № 1.
5. Muruvvat A., Shohbozbek E. (2025). The role of preschool education in spiritual and moral values in Uzbekistan. Global Science Review, 3(2), 246–253.
6. Муслимов Н. ва бошқ. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. Тошкент: Сано стандарт, 2015.
7. Тилеуов Э. М. Талабаларнинг ҳуқуқий компетентлигини ривожлантириш технологиялари // UDK 519.24. – 2019. – Т. 1. – Б. 326.
8. Qo'ysinov O. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Nordic_Press. – 2024. – T. 2. – № 0002.
9. Shohbozbek E. (2025). Theoretical foundations for the development of the spiritual worldview of youth. Maulana, 1(1), 29–35.
10. Raxmonova G. Talabalarda ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishning mazmuni // Pedagogik mahorat. – B. 107.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.